

BOSHLANG‘ICH SINIF O‘QUVCHILARIDA MATEMATIK QOBILIYATLARINI RIVOJLANTIRISHDA QO‘LLANILADIGAN METODLAR**Karimova Sevara**

Guliston davlat universiteti o‘qituvchisi

sevarakarimovaa141@gmail.com**Xayitboyeva Mahliyo**

Guliston davlat universiteti talabasi

Annotatsiya. Maqolada boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining matematika faniga oid qiziqishlarini orttirish, matematik iqtidorini boyitishga xizmat qiladigan matematika faniga oid masalalar va qanday qilib o‘quvchilarda matematik qobiliyatlarni shakllantirish masalalari bayon qilingan.

Tayanch so‘zlar: o‘quvchi, idrok, matematika, masala, aqliy qobiliyat, aqliy energiya, intellekt, matematik qobiliyat, metodika, matematik tafakkur.

Yangi O‘zbekistonning Taraqqiyot strategiyasidagi “yangi, demokratik jamiyatni barpo etish, kelajak poydevorini qurish, hech shubhasiz, har birimizdan qat’iyatli va omilkor bo‘lishni, yangicha fikr yuritish, yangicha ishlashni talab etmoqda” kabi g‘oyalar taklif etildi.¹ Bu borada ta’lim jarayonini mazmunli tashkil etish, barkamol shaxs tarbiyasiga alohida e’tibor qaratish zaruriyati yanada kengaytirildi. Mamlakatimiz rivojlanishining yangi davrida amalga oshiriladigan islohotlarning ustuvor yo‘nalishlaridan biri “adolatli ijtimoiy siyosat yuritish, inson kapitalini rivojlantirish” etib belgilandi. Bundan kelib chiqqan holda, boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining o‘yinlar orqali og‘zaki nutqlarini takomillashtirishning didaktik imkoniyatlari, yo‘llari, usullarini aniqlashtirish, muhim ahamiyat kasb etadi.

Darslar faoiyatida qo‘llaniladigan metodlar va o‘quvchilarda matematik qobiliyatlarni rivojlantirishdagi o‘rni beqiyos. Mamlakatimizda o‘quvchilar qobiliyatlarini rivojlantirish borasida olib borilayotgan ishlar zahirida, ularning nufuzli xalqaro matematika olimpiadalarida sovrinli o‘rinlarni yegallashlari, yuqori marralarga yerishganliklarini ko‘rsatish mumkin. Albatta, yerishilgan natijalar bilan cheklanib qolmaslik, o‘quvchilar matematik qobiliyatlarini rivojlantirish va aniqlashning yangi-yangi tamoyillarini ishlab chiqish zarur. O‘quvchilardagi matematik qobiliyatlarni aniqlash va rivojlantirishga doir maxsus adabiyotlar yetishmasligi va shu bois ularni yaratish ustida tinimsiz ishlar olib borish davr talabi.

Qobiliyat muammosi bilan shug‘ullanuvchi deyarli barcha tadqiqotchilar asosiy urg‘uni tahsil oluvchilarning intellektual qobiliyatlarini o‘rganishga qaratishmoqda. Xorij va mamlakatimiz olimlari aqliy qobiliyatlar tavsifnomasini “intellekt” atamasi bilan bog‘lamoqda. Ba’zan intellekt “aqliy qobiliyat” tushunchasining sinonimi sifatida ham ishlatilmokda.

“*Intellekt*” tushunchasi umumiy qobiliyat asosida hosil bo‘lgan, orttirilgan tajriba sifatida qaraladi. Qobiliyatni o‘rganishga qaratilgan har xil yondashuvlarni tahlil qilishda biz “intellekt”, “qobiliyat” va “aqliy qobiliyatlar” tushunchalaridan ham foydalanamiz. Qobiliyatni o‘rganishning tarixiy ildizlari xorij psixologiyasida test yo‘nalishining paydo bo‘lishi bilan bog‘lanadi. Aynan shu yo‘nalish doirasida “qobiliyat” miqdoriy tushuncha sifatida qaralgan. Test nazariyasi o‘quvchilarning qobiliyatlari sifat jihatdan tengligini va qobiliyatlardagi miqdoriy farqlarni aniqlash metodlarini yaratish zarurligini tan oladi.

¹ O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 28.01.2022 yil PF-60-son

Amerikalik psixolog L.Torrens qobiliyatlarga oid ko'p omilli nazariyani taklif etdi. Dastlabki aqliy qobiliyatlar sifatida 12 ta omil ajratib ko'rsatilgan: so'zlarni tushunish, tez gapirish, miyada amallarni bajarish, ma'lumotlarni yodda saqlash va ifoda etish qobiliyati va boshqalar intellektning umumiy asosini rad etgan holda, intellektni bir-biriga umuman bog'liq bo'lmagan alohida qobiliyatlar majmuasi deb qaragan.

O'quvchilarning biz taklif etayotgan matematik qobiliyati komponentlari quyidagicha:

Idrok etishni rivojlantirish: a) axborotni izlashga doir masalalar; b) sinash va xato metodikasiga oid masalalar; v) shartlari to'liq bo'lmagan masalalar; g) shartlari ortiqcha bo'lgan masalalar;

a) *axborotni izlashga doir masala.* 100 – katakli jadval berilgan bo'lib, u raqamlar (grafik tasvir, turli shakl va rangsiz geometrik figuralar, harflar jamlanmasi) bilan to'ldirilgan.

b) *sinash va xato metodikasiga oid masala.*

$14 + 2 * 4 - 9 \# 3$ ifodaning natijasi 16 bo'lishi uchun *, # amallar qanday bo'lishi va qavslar qanday joylashishi kerak?

Yechish. Bunda o'quvchi natijalarni hosil qilish uchun amallar va qavslarni qo'yish ustida mulohaza yuritib, idrok qilish orqali o'zida turli usullarda sinash va xatolarni tuzatish metodidan foydalanadi, natijada ifodaning yechimini topadi: $(14 + 2) \cdot (4 - 9 : 3) = 16$

v) *shartlari to'liq bo'lmagan masalalar.*

Do'konda jami 200 kg guruch, shakar va loviya bor. Guruch shakardan 25% ko'p. Har bir aytilgan maxsulot necha kilogrammdan? (Loviya haqida ma'lumot to'liq yemas?)

Yechish. Shartlari to'liq bo'lmagan masalalar turkumiga kiradi. O'quvchi masalani yechishda quyidagicha mulohaza yuritadi: x kg -guruch, y kg- shakar va loviya shartda ortiqcha, chunki guruch shakardan 25% ko'p ekanligi ta'kidlangan, lekin loviya haqida gap yo'q, shuning uchun o'quvchi uni e'tibordan chetda qoldiradi va quyidagi sistemani tuzib yechadi:

Va nihoyat guruch $x = \frac{1000}{9}$ kg, shakar $y = \frac{800}{9}$ kg degan yechimni oladilar. Lekin

ayrim o'quvchilar loviya nima bo'ldi? degan savolni qo'yadilar. Agar bunday bo'lmasa, bu savolni o'qituvchi qo'yishiga to'g'ri keladi. Natijada, o'quvchilar loviyani hisobga olgan holda, masala yechimini qidirishga tushadilar. Ular turli yechimlarni topishadi. Masalan: 1) shakar – 20 kg, guruch – 25 kg, loviya – 155 kg; 2) shakar – 80 kg, guruch – 100 kg, loviya – 20 kg va hokazo. O'quvchilar shu tariqa bu masalaning yechimi yagona emas ekanligiga va bunday masalalarni ham yechishga to'g'ri kelishiga ishonch hosil qiladilar. Ayrim o'quvchilar bu mulohazalarni yana davom ettirishi mumkin. Bu o'quvchilarda idrok etishni rivojlantiradi.

g) *shartlari ortiqcha bo'lgan masalalar.*

Avtomobil turar joyida 40 ta – avtomobil va mototsikl turibdi. Ularda birgalikda hisoblansa, 130 ta g'ildirak va 40 ta rul bor. Ularning soni nechtdan?

Yechish. Bu sharti ortiqcha bo'lgan masala bo'lib, o'quvchi birinchi navbatda 40 ta avtomobil va mototsiklni ularning g'ildiraklari va rullari soniga moslashtirishga harakat qiladi. O'quvchilar quyidagicha mulohaza yuritadilar: avtomobil turar joyida 20 ta avtomobil $20 \cdot 4 = 80$ ta g'ildirak, 20 ta mototsikl $20 \cdot 2 = 40$ ta g'ildirak bo'lib, $(80 + 40) - 130 = 10$ ta g'ildirak ortiqcha yekanligini topadi. Masala o'quvchilarni matematik materialni formal idrok qilishga undaydi.

Demak ta'lim jaryonida o'quvchilarning bilim darajalari, ko'nikma va malakalari, dunyoqarashidan kelib chiqqan holda bosqichma-bosqich ularni murakkablashtirishi, yangi mazmun va qoidalar bilan boyitishi talab etiladi. Shu asosida biz boshlangich sinf o'quvchilarida

matematik qobiliyatlarini shakillantirib rivojlantirib boramiz.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Давлетшин М.Г. Крутецкий В.А. Қобилият ва унинг диагностикаси – Тошкент: Ўқитувчи, 1979. – 165 б.
2. Shahriddinova, K. S. (2023). Didactic Features Of Development Of Nature Perception Skills Of Primary School Students. *Eurasian Journal of Learning and Academic Teaching*, 19, 183-187.
3. Shahriddinova, K. S. (2023). INTRODUCING CHILDREN OF PRIMARY SCHOOL AGE WITH THE WORLD. *American Journal of Applied Science and Technology*, 3(06), 09-14.
4. Shahriddinova K. S. Didactic Features Of Development Of Nature Perception Skills Of Primary School Students //Eurasian Journal of Learning and Academic Teaching. – 2023. – Т. 19. – С. 183-187.
5. Shahriddinova K. S. INTRODUCING CHILDREN OF PRIMARY SCHOOL AGE WITH THE WORLD //American Journal of Applied Science and Technology. – 2023. – Т. 3. – №. 06. – С. 09-14.
6. Karimova, S. (2022). THE ROLE AND IMPORTANCE OF" NATURAL SCIENCES" IN THE DEVELOPMENT OF UNDERSTANDING OF NATURE IN GENERAL SECONDARY SCHOOLS. *Science and innovation*, 1(B6), 214-218.
7. Karimova S. THE ROLE AND IMPORTANCE OF" NATURAL SCIENCES" IN THE DEVELOPMENT OF UNDERSTANDING OF NATURE IN GENERAL SECONDARY SCHOOLS //Science and innovation. – 2022. – Т. 1. – №. B6. – С. 214-218.
8. Karimova S. CHARACTERISTICS OF NATURAL TEACHING METHODOLOGY //Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences. – 2021. – Т. 1. – №. 11. – С. 737-740.
9. Karimova, S., & Ashurova, M. (2023). TYPES OF EDUCATION. *Modern Science and Research*, 2(8), 161–163. Retrieved from <https://inlibrary.uz/index.php/science-research/article/view/22537>
10. Mamatova, X., Karimova, S., & Turg'unboyeva, M. (2023). EDUCATION IS UPBRINGING, KNOWLEDGE IS SALVATION. *Modern Science and Research*, 2(8), 164–166. Retrieved from <https://inlibrary.uz/index.php/science-research/article/view/22538>
11. Mamatova, . H., Karimova, S., & Mamayusupova, . Z. (2023). PEDAGOGICAL ANALYSIS IN THE WORKS OF ALISHER NAVOI. *Modern Science and Research*, 2(9), 5–8. Retrieved from <https://inlibrary.uz/index.php/science-research/article/view/23865>
12. Karimova S., Habibullayeva S. THE ESSENCE OF THE EDUCATIONAL PROCESS IN PEDAGOGY //Modern Science and Research. – 2024. – Т. 3. – №. 1. – С. 40-44.
13. Karimova Sevara Shaxriddin Qizi. (2023). FORMATION OF NATURE AWARENESS SKILLS OF PRIMARY SCHOOL STUDENTS. *International Scientific and Current Research Conferences*, 1(01), 43–45. Retrieved from <https://www.orientalpublication.com/index.php/iscrc/article/view/1105>
14. Mamatova H., Karimova S., Mamayusupova Z. PEDAGOGICAL ANALYSIS IN THE WORKS OF ALISHER NAVOI //Modern Science and Research. – 2023. – Т. 2. – №. 9. – С. 5-8.